

## Aholiga munosib turmush sharoiti yaratish barcha rahbarlarning asosiy vazifasi bo'lishi kerak

---



**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, yirik loyihalar bilan yaqindan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida 30-31 yanvar kunlari Jizzax viloyatida bo'ldi.**

Tashrifning ikkinchi kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida Jizzax shahrida viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish, aholi turmush sharoitini yanada yaxshilash masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda viloyat faollari, deputatlar, davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari, tuman va shaharlar hokimlari, keng jamoatchilik vakillari qatnashdi.

Davlatimiz rahbari "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan tamoyil asosida xalqimiz hayotini yaxshilash, hududlarni obod qilish bo'yicha viloyatda amalga oshirilayotgan ishlarga e'tibor qaratdi.

Xususan, o'tgan yili mart oyidagi tashrif doirasida ishlab chiqilgan dasturga asosan Jizzax viloyatida 107 ta investitsiya loyihasi bo'yicha yangi obyektlar ishga tushirilgan.

Bugungi kundagi eng muhim vazifa – investitsiya va texnologiyalar olib kelib, yangi korxonalar tashkil etish, odamlarni ish bilan ta'minlash, turmush sharoitini yaxshilash, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu maqsadda 2019-2020 yillarda viloyatda umumiy qiymati 21 trillion 956 milliard so'm bo'lgan 586 investitsiya loyihasi dasturi ishlab chiqilgani, buning natijasida 22 ming 300 dan ziyod ish o'rni yaratish rejalashtirilgani qayd etildi. Forish tumanida bazalt tolasi va shamol energiyasi qurilmalari, Do'stlik tumanida quyosh panellari, Zomin tumanida dori vositalari, Jizzax shahrida bezakli va yupqa oyna ishlab chiqarish loyihalari shular jumlasidandir.

Jumladan, 14,1 trillion so'm yoki jami investitsiyalarning 64 foiziga teng bo'lgan 180 ta yirik sanoat loyihasini amalga oshirish Jizzax viloyatini "sanoat xabi"ga aylantirish borasidagi ishlarga kuchli turtki berishi ta'kidlandi.

Prezidentimizning joriy yil 3 yanvardagi "Jizzax viloyatini kompleks rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarishning samarali modelini ishlab chiqish to'g'risida"gi farmoni ijrosi doirasida 1 martdan viloyatda "Ilg'or hudud" sinov loyihasini

amalga oshirish boshlanadi.

Ushbu loyiha doirasida aholi daromadlarini oshirish va turmush sharoitini yaxshilash, qulay investitsiya muhiti yaratish va yangi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish choralari ko'riladi.

Shavkat Mirziyoyev ushbu loyiha doirasida amalga oshiriladigan ishlarni sifatli va o'z vaqtida bajarish yuzasidan topshiriq berdi.

Odamlarga munosib turmush sharoiti yaratish barcha bo'g'indagi rahbarlarning asosiy vazifasi bo'lishi zarur. Buning uchun barchamiz hamjihatlikda vijdonan ishlashimiz kerak, dedi davlatimiz rahbari.

Chorvachilik, baliqchilik, asalarichilik, parrandachilik, pillachilik tarmoqlarida mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Aholining maishiy sharoitlarini, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

Mirzacho'lida qilingan ishlar yaxshi tajriba, namuna bo'ldi. Endi Jizzax viloyatining har bir tumani markazini shu tarzda obod qilish, zarur qurilish-ta'mirlash ishlarini shu yilning o'zida yakunlash kerak, dedi Prezidentimiz.

Shuningdek, joriy yilda Jizzax shahrida 15 ta ko'p qavatli arzon uy, tumanlarda 932 ta turar joy qurish vazifasi qo'yildi. Zarafshon daryosidan suv olib kelish uchun magistral quvur va nasos stansiyasi qurilishini davom ettirish, 264 kilometr suv tarmog'ini qurish va ta'mirlash bo'yicha topshiriq berildi. Bu ishlar natijasida Zarbdor, Baxmal, Paxtakor, Mirzacho'l, Do'stlik, G'allaorol, Sharof Rashidov tumanlari aholisi toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishi, ularning turmush tarzi, salomatligi yaxshilanishi ta'kidlandi.

Yig'ilishda viloyatda ijtimoiy sohada ko'p yillar davomida yig'ilib qolgan muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf qilish choralari ko'rish zarurligi qayd etildi.

Viloyatda ta'lim-tarbiya sohasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. 2019 yilda 25 davlat maktabgacha ta'lim muassasasini rekonstruksiya qilish, xususiy bog'chalar sonini ko'paytirish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha 230 dan ziyod bepul guruh faoliyati yo'lga qo'yiladi. Buning natijasida joriy yilda viloyatda maktabgacha ta'lim qamrovi 32 foizdan 51 foizga yetadi. Shuningdek, viloyatda Janubiy Koreya va Germaniya tajribasi asosida 10 ta innovatsion bolalar bog'chasi barpo etish ko'zda tutilgan.

Yig'ilishda viloyatdagi 150 dan ziyod maktabda o'quvchilar soni me'yorga nisbatan

yuqoriligi, 29 maktab quvvatidan to'liq foydalanilmayotgani, aniq va tabiiy fanlar, xorijiy tillar chuqur o'rgatiladigan maktablarga zarurat borligi qayd etildi. Mutasaddi tashkilotlarga bu boradagi muammolarni hal qilish vazifasi yuklandi.

Davlatimiz rahbari viloyatda sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar haqida ham to'xtaldi.

Joriy yilda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi viloyat filiali, viloyat perinatal markazi, endokrinologiya, kardiologiya, teri-tanosil dispanserlari, Jizzax shahar tug'ruq kompleksi ta'mirlanadi. Aholi o'rtasida ko'p kuzatilayotgan kasalliklar tahliliga ko'ra, ixtisoslashgan tibbiyot muassasalari quriladi.

Faollar yig'ilishidan so'ng Prezidentimiz viloyat markazidagi Mirzo Ulug'bek mahallasida bo'lib, shaharda qurilishi rejalashtirilayotgan uy-joylar, ijtimoiy obyektlar, obodonlashtirish loyihalari bilan tanishdi.

Jizzax shahrini obodonlashtirish, aholiga munosib turmush sharoiti yaratish borasida keng ko'lamli ishlar boshlangan. Shahar bosh rejasiga ko'ra, Kimyogar, Ittifoq mahallalarida, Mustaqillik ko'chasida 5 va 7 qavatli uylar quriladi, ular atrofida savdo majmualari, klinika, mehmonxona va mahalla idoralari qad rostlaydi. Ayni paytda qurilish ishlari boshlab yuborilgan.

Jizzaxda turizmni rivojlantirish uchun yaxshi imkoniyat, qulay tabiiy sharoit mavjud. Sayyohlarda dastlabki taassurot esa shahar temir yo'l vokzalidan boshlanishi tabiiy. Shu maqsadda Jizzax temir yo'l vokzali tubdan rekonstruksiya qilindi. Barcha zarur sharoit yaratilgan vokzaldan chiqishingiz bilan Mirzo Ulug'bek mahallasi boshlanadi. Bu yerda keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari bajarilmoqda.

Xususan, vokzal va Toshkent ko'chasini birlashtiruvchi hududda 894 xonadonga mo'ljallangan 7 qavatli 13 ta uy qurilmoqda. Bu uylar yangi ko'cha bo'ylab joylashadi, atrofi obodonlashtirilib, o'ziga xos chiroyli landshaft hosil qiladi.

Jizzax shahrida viloyat qo'g'irchoq teatri quriladi. 250 yosh tomoshabinga mo'ljallangan mazkur maskan joriy yil yakuniga qadar foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan. Buning uchun 12 milliard 700 million so'mdan ortiq mablag' yo'naltirilgan.

Davlatimiz rahbariga viloyat aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, shahar oqova suv tizimi tarmog'ini rivojlantirish borasidagi ishlar haqida ma'lumot berildi.

Prezidentimiz aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash eng muhim masalalardan biri ekanini ta'kidladi. Rejadagi ishlarni tez va sifatli bajarish yuzasidan topshiriqlar berdi.

Loyihalar taqdimotida avtomobil yo'llari atrofini ko'klamzorlashtirish, yo'lbo'yi infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar to'g'risida ham so'z yuritildi. Yo'llar bo'yiga qayrag'och, klyon, eman, akatsiya, yapon saforasi, tut, terak, lola, kashtan, suriya atirguli, hind sireni, magnoliya kabi daraxt va gul ko'chatlari ekiladi.

Prezidentimiz Jizzax shahridagi 3-ichki ishlar bo'limida ham bo'lib, bu yerda o'tgan yili berilgan topshiriqlar ijrosi bilan tanishdi.

Mamlakatimizda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, jamoat tartibini ta'minlashga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. "Xavfsiz shahar", "Xavfsiz turizm", "Xavfsiz xonadon" tizimlari joriy etilgani, tunu kun patrullik xizmati yo'lga qo'yilgani natijasida odamlarda adolat va qonun ustuvorligiga ishonch paydo bo'ldi.

Davlatimiz rahbarining 2018 yil 14 fevraldagi qaroriga muvofiq, Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimi joriy etildi.

Jizzax shahridagi 3-ichki ishlar bo'limida ham shunday zamonaviy tizim tashkil etildi. Bo'lim shahardagi Xayrobod, Madaniyat, Tinchlik, Sayxon, Obod, Kimyogar, Hamid Olimjon va Alisher Navoiy nomlaridagi mahallalarda yashovchi aholiga xizmat ko'rsatadi. Tezkor navbatchilik qismiga hududdagi maktab, bolalar bog'chasi va boshqa obyektlarni tunu kun nazorat qilish imkonini beradigan videokuzatuv tizimi joriy etilgan.

Prezidentimiz jamoat xavfsizligini ta'minlashning moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, xodimlar mas'uliyatini oshirish bo'yicha topshiriqlar berdi.

[O'ZA](#)